



**DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARINING INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

Abduraxmonov Umidjon Shoqosim o'g'li¹

Usmonova Nilufar Abdusattor qizi²

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi¹

Qo'qon davlat universiteti talabasi²

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi funksiyalari, ularning turlari hamda o'qitish metodikasida tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning fikrlash, diqqat, xotira, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'yinli topshiriqlar tizimi misolida metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'yinli faoliyat asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda ijodiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, boshlang'ich ta'lim, intellektual rivojlanish, metodika, o'quv faoliyati, o'yin texnologiyalari, kognitiv jarayon, ijodiy tafakkur, ta'lim samaradorligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari intellektini didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari haqida so'z borar ekan, eng avvalo "intellect" va "didaktik o'yin" atamalarining ma'nosiga to'xtalamiz.

Intellekt (lotincha intellectus– aql, idrok, zehn) – keng ma'noda: kishining voqea-hodisa mohiyatini to'laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo'ladigan faoliyati; tor ma'noda: insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyati. Intellekt kishilarning aql, idrok, zakovat, ma'naviy jihatdan yetuklik darajasini ham bildiradi; tasavvur, idrok, sinchkovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraksiya, tushuncha, hukm va hokazo.) orqali asosli bilimga ega bo'lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etib chiqish qobiliyatini ham anglatadi. Intellektual resurs insonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida avvalo o'z aqliy omilkorlik salohiyatini, turmush tarzini turli yo'nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatidir. Inson bosh miyasi qobig'ida o'n to'rt milliarddan oshiq neyronlar mavjud. Ularning vazifasi inson faoliyatini har tomonlama, to'la boshqarishdan iborat. Kishining qilayotgan har bir harakati neyronlar faoliyati mahsulidir. Bu jahon tibbiyotida chuqur o'rganilgan va to'la tan olingan haqiqatdir. Shuning uchun ham, aytish mumkinki, insonning intellektual o'zligini namoyon qilishida uning imkoniyatlari – resurslarining o'rni beqiyos. Lekin inson ana shu intellektual imkoniyatlar, ya'ni resurslarning bor-yo'g'i 4–4,5 foizidan foydalanadi. Shundan 4 foizini 8–11 yoshgacha bo'lgan davrda oladi va qolgan yarim foizini butun umri davomida qabul qiladi. Tabiatan iqtidorli kishilar esa o'sha qolgan yarim foiz ma'lumotni 11

yoshidan keyingi umriga to‘g‘ri taqsimlay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Inson bosh miyasining fiziologik tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, uning miyasidagi intellektual kuch atom yadrosidagi beqiyos kuchga teng bo‘lar ekan. Gap uni qanday rivojlantirish va qay darajada ishlata bilishda. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, beshikdagi har bir go‘dakda dahol bo‘lish imkoni mavjud. Hamma gap ushbu "dahol"ni talab darajasida tarbiyalay olishda. Bugungi kundagi ilm-fan xulosasiga ko‘ra insoniyat tarixida atigi 400 ga yaqin kishi daholik maqomiga sazovor bo‘lgan, xolos. Bu esa dahol insonlarni tarbiyalash qanchalik qiyin ish ekanini ko‘rsatadi. Gap shundaki daholarni tarbiyalab voyaga yetkazishda nafaqat bir oila yoki bir xalqning, balki butun insoniyatning ma‘naviy yutuq va tajribalaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

Didaktik o‘yin - bu aqliy faoliyatni tarbiyalashning qimmat vositasi bo‘lib, u boladagi intellektual jarayonlarni faollashtiradi. Didaktik o‘yin bolalarga har qanday o‘quv materialini qiziqarli va oson o‘rganishga yordam beradi. Bunday o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, aqliy imkohiyatlariga mos keladigan ta‘lim berish metodidir desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi va rivojlantirishning ommaviy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ba‘zi o‘quvchilar oddiy kundalik darslarda foydalaniladigan an‘anaviy ta‘lim usullaridan qoniqib o‘qiydi, ba‘zilari amaliyotni ma‘qul ko‘radi ya‘ni ularga ming marta tushuntirgandan ko‘ra bir marta amaliy bajarib ko‘rgani ma‘qulroq bo‘ladi, ba‘zilari esa darslarda turli zamonaviy texnologiyalar, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni xush ko‘radi va o‘shanga qarab intiladi. O‘quvchilar turli xil usullar orqali ta‘lim olishlari o‘ta muxim hisoblanadi. Bixillikdan tez zerikishadi. Darslarda o‘yinlar orqali ta‘lim jarayonini tashkil etish ba‘zilarning nazarida dars faoliyatidan tashqariga chiqib ketib o‘yin faoliyatiga o‘tib ketgandek tuyulishi mumkin. Aslida bunday emas! Har bir dars davlat ta‘lim standartlaridan chetga chiqmagan xolda tashkil etiladi. O‘yinlar esa darslarga o‘quvchilar diqqatini yanada yaxshiroq jalb qilish, ularda kommunikativlik qobiliyatini shakllantirish, zukkolik, chaqqonlik, do‘stga, vatanga, sadoqat, mardlik, oldiga qo‘ygan maqsadiga erishmaguncha ortga chekinmaslik va hokazo shu kabi ko‘plab fazilatlarni rivojlantirishda yordam beradi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta‘lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlar ham alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sanash, kuzatish,

solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o‘rgatish, nutq o‘stirish, til o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari intellektini didaktik o‘yinlar orqali rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqotning dorzarbligi shundaki o‘qituvchi darsni o‘yinli usullar hamda vositalar bilan olib borsa, auditoriyada o‘tirgan o‘quvchilarning yodida uzoq vaqt ko‘tarilmaydigan darajada qoladi, hamda qaysi paytda so‘ralsa ham o‘sha vaqtdagi syujet ko‘z oldiga kelib javob berishga harakat qiladi. Xo‘sh, o‘quvchini birinchi navbatda nima esda qoladi? Albatta ko‘rgan va eshitgan hayotiy voqealiklar. Ularga ishonadi va shunga qiziqadi bu o‘z navbatida fanga ham shunday qiziqishlari va o‘zlashtirishlari namoyon bo‘lishiga olib keladi. Shu o‘rinda o‘qituvchi didaktik o‘yinlardan foydalanar ekan, uning oddiydan murakkab prinsipga o‘tishiga amal qilishi lozim. Bu o‘quvchilar qiziqishini yanada ortishiga va intellektual qobiliyatlarini rivojlanishiga hamda o‘yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilishiga erishish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar o‘zining shakli jihatidan, asosan, bog‘chada o‘ynaladigan ijodiy o‘yinlardan ham, o‘qituvchi o‘zi hikoya qilib berish yo‘li bilan tushintiradigan va o‘quvchilarni birma-bir so‘rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o‘yinlardan ham bir muncha farq qiladi. Bunday o‘yinlar o‘qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Musobaqa tarzida o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlarda bolalar g‘olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga xarakat qiladilar, natijada ularda didaktik o‘yin topshiriqlarini bajarishga bo‘lgan qiziqish orta boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – C. 341.
2. Abduraxmonov U. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.
3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 11. – C. 1354-1365.
4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – C. 104.
5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 11. – C. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.
7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEKANIKA MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.
8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.
9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.
10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA‘LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.
11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.
12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA‘LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.
13. Abduraxmonov U. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.
14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – С. 91-92.
15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA‘LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.
16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.
17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.
18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.